


BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA DASRLARINI TASHKIL ETISH



Fazilat Ramanberganova Yangibayevna

Urganch tumani 9-sonli maktab Boshlang'ich ta'lif

Salomat Yuldasheva Shomurodovna

Urganch tuman 9-sonli maktab Boshlang'ich ta'lif

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiya dasrlarini tashkil etish, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'g'ri anglashlarini o'rgatish haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, insoniy fazilat, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik.

Kirish:

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lif-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Bu ma'suliyatlari vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'g'ri anglashlari va uni o'z darslarida mohipona foydalanishlarini taqazo etadi.

Tarbiya-pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq tabiblardek kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg'oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib katta qilmog'i lozimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Yoshlarni tarbiyalash va ularning ma'nnaviy barkamolligini shakllantirish vazifasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Globallashuv jarayoni va ushbu jarayonning salbiy oqibatlaridan biri bo'l mish ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta'siri nuqtai nazaridan olib qarasak, aqlan barkamol ma'nан yetuk shaxslarni yetishtirish birmuncha mas'uliyatli va jiddiy vazifadir.

Axloqiy tarbiyaning vazifasi va mazmuni maktabdagagi axloqiy tarbiya berishning asosiy prinsiplari va pedagogik shart-sharoitlarga rioya qilish asosida bajariladi. Maktabda boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiyasining vazifasi hamda mazmuniga muvofiq uning prinsiplari ishlab chiqilgan. Axloqiy tarbiya-shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga axloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning axloqiy his tuyg'u va sifatlarini, ijobiy munosabatlar va xalq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir. Axloqiy bilim berish bir qancha

tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to‘g‘risida keng tasavvur, tushunchalar beradi.

Natijalar:

Tor ma’noda tarbiya shaxsnинг jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviyaxloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta’lim va ma’lumot olish tor ma’nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsnинг fakat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki axloqiy ma’naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining Tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish. to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzlucksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

Muhokama:

Umumiy o’rta ta’limning barcha fanlari kabi boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya fani ham davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturi asosida badan tarbiyasi o’qitiladi. O’quv dasturi o’quv jarayonini amalga oshirishning asosiy hujjatlaridan hisoblanadi. O’quv fan dasturi badan tarbiya ta’limi mazmuni, uning o’quvchilar tomonidan o’zlashtirishning eng samarali usullari, ahborot manbalari va me’yorlari ko’rsatilgan me’oriy hujjatlar hisoblanadi.

Aqliy tarbiya – shaxsnинг har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek boshlang‘ich sinflarda aqliy tarbiya bilimlarni to‘plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarini taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi.

Xulosa:

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxlab kelingan. Sho‘ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo‘ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyomuhamedov.B, Abdullayeva Sh. Pedagogika.-T.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000.
2. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2004.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi., T: “ILM ZIYO” 2009.
4. Ziyomuhammadov B., Abdullayeva SH. Pedagogika. – T.: O’qituvchi, 2000.
5. Asqarova O‘., Egamberdieva G. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya. Namangan-2007.